

**O‘ZBEK KOMPOZITORI MUSTAFO BAFOYEV IJODIDA XOR YOZUVINING
OZIGA XOS HUSUSIYATLARI**

Malikova Sevar Samatovna

O‘zbekiston davlat madaniyat va san’at instituti
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
(+998 90)944-93-86

Annotatsiya

Maqola xorning o‘ziga xos nozik tomonlarini biluvchi Mustafu Bafoyevning turli janrdagi asarlari tahliliga bagishlangan.

Kalit sozlar: dramaturgiya, syuita, balet-feyera, oratoriya, a’kapella, poema-kantata, miniatyura, faktura.

**СВОЕОБРАЗНЫЕ СПЕЦИФИКИ ХОРОВОГО ПИСЬМА В ТВОРЧЕСТВЕ
УЗБЕКСКОГО КОМПОЗИТОРА МУСТАФО БАФОЕВА**

Аннотация: Статья посвящена анализу произведений в разных жанрах Мустафо Бafоева, знатока своеобразных тонких сторон хорового письма.

Ключевые слова: драматургия, сюита, балет-феера, оратория, а’капелла, поэма-кантата, миниатюра, фактура.

**ORIGINAL SPECIFICS OF CREATIVITY OF OZBEK COMPOSER MUSTAFO
BAFOEV**

Abstract: The article is devoted to the analysis of works in various genres by Mustafu Bafoev, a connoisseur of the peculiar subtle aspects of choral writing.

Keywords: dramaturgy, suite, ballet extravaganza, oratorio, a'kapella, poema-kantata, miniatyura, faktura

Mustafu Bafoyevning kantata-oratoriya va opera ijodida xor ulkan o‘rin tutadi. Kompozitorning turli janrlarda yaratgan deyarli barcha asarlarida xor musiqiy dramaturgiyaning muhim omili sifatida ishtirok etadi. “G‘azal” syuitasi, “Baxoriya” simfoniyasi, “Zardushtiylar marosimlari” balet oratoriyasi, “Lison ut-tayr” balet-feyerasi va boshqa asarlari shular jumlasidan. Xorning o‘ziga xos tomonlarining nozik bilimdoni bo‘lgan M.Bafoyev hamisha xorga murojaat qiladi. Uning qalamiga mansub 6 ta oratoriyasini zamonaviy xor usullarining o‘ziga xos qomusi, xor san’atining o‘ziga xos maktabi desa bo‘ladi. S.Rasuli-Isroilova o‘z tadqiqotlarida: “Xor janriga” bunday sodiqlikda kompozitor

ijodiga xos ajoyib xususiyatlardan biri – ko‘p ovoqli vokal ijodiyotida yangilikka, izlanishga intilishgina emas, balki shuningdek uning respublikada xor janri va, ayniqsa, a‘kapella xorining yashovchanligi va keyingi taraqqiyoti maqsadga muvofiqligiga jamoatchilikning gumon (shubha)lari, milliy haddan oshishlarga ijodi bilan qarshi tura olishi kabi fuqorolik jasorati ham mujassamdir¹ – deganda haqli edi.

80 – yillarning boshida iqtidorli kompozitor **M.Bafoyevning** a‘kapella janrida xor uchun qiziqarli bo‘lgan qator asarlarni yaratadi. Bu asarlar orasida jo‘rsiz xor uchun buyuk faylasuf, olim va shoir Abu Ali ibn Sinoning 1000 yilligiga bag‘ishlangan “**Naqshlar**” xor poemasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Asar J.Kamol tarjimasidagi Ibn Sino ruboilariga yozilgan. Faylasufning hayot mazmuni, quvonchlari va mashaqqatlari, intilishlari, turmush muammolarini tushunish va hal qilish haqidagi o‘ylari poemaning asosiy g‘oyasini tashkil etadi.

Asar yagona badiiy g‘oya bilan bog‘langan hamda ketma - ket to‘xtovsiz ijro etiluvchi yetti miniatyurani o‘z ichiga oladi. Xor turkumining melodik va lad asosida Buxoro Shashmaqomi yotadi. Shuni aytib o‘tish lozimki, turkumda xor nomerlari xor va solistli aralash nomerlar bilan almashib keladi. Bu usul maqomlar ashula bo‘limlariga xos.

Birinchi miniatyurani kirish va tugallanish qismi yahlit shaklda yozilgan. Kirish mavzusi qilib Ibn Sino leytmotivi olingan va u o‘ychan, improvizatsion xarakterda bayon etilgan. Boshlanishida mavzu alt ovozlarda ijro etiladi, soprano partiyasi esa qarshi tuzilma (protivoslojeniye) hosil qiladi. Kirish qismi intonatsiyalariga qurilgan asosiy kuy solist partiyasiga (tenor) topshirilgan.

Qolgan ovozlari qarshi tuzilma bo‘lib xizmat qiladi hamda solist partiyasi jumalalar ohirini imitatsiyalaydi. Solist partiyasining yuqorilovchi sekvensiya ko‘rinishida yuqori registrga sekin-asta harakati, umumiy dinamikaning fortegacha ko‘tarilishi yorqin kulminatsiyaga olib keladi.

So‘ng dinamik pasayish, solist melodiya sining pastki nuqtalarga qaytishi, solist va xor orasidagi kichik imitatsiyalar keladi.

Birinchi miniatyurani xor fakturasida polifonik bayon, metro-ritmik rangbaranglik, tez – tez xorda vokalizatsiya usulining solist partiyasidagi kuychan rechitatsiya bilan birga qo‘llanib turishi yetakchilik qiladi.

Ikkinchi miniatyura birinchisiga kontrast xarakterda. Lirik matn hayot go‘zalliklari va uning turli ko‘rinishlarini tarannum etadi. Shoir go‘zallik siri va o‘rab turgan olam mutanosibligini tushunishga intiladi.

Xor oddiy uch qismli shaklda yozilgan. 1-qismning asosiy kuyi – boshlang‘ich kuy o‘zgarmas bo‘lib, kompozitor unda mavzuning ikkiovoqli bayonini qo‘llaydi. Davomida

¹ Расули –Исраилова С. Стилистические тенденции развития узбекской хоровой музыки 70-90-х годов XX века. – Ташкент:2003.- С.61.

<https://conferencea.org>

mavzu doira usulini imitatsiyalovchi tonika organ punkti fonida yuqori ovozlarda o'tkaziladi.

1- qism barcha ovozlari uchun qulay bo'lgan registrda ijro etiladi. O'rta qismda 1- qism mavzu materialining erkaklar va ayollar xor partiyalari orasidagi imitatsiyalari ko'rinishidagi polifonik rivojlovi qo'llanadi. Qism oxirida ovozlari garmonik tuzilma hosil qilib, forte da jaranglovchi umumiy

xor **tuttiga** quyiladi. Bir tekis vokal yuklama, qulay tessitura ijroda xor sadolanishining tabiiyligiga erishishga yordam beradi.

Uchinchi miniatyura musiqasining chuqur ta'sirchanligi bilan ajralib turadi. Yorqin ifoda vositalari va vokal- xor bo'yoqlari yordamida kompozitor olimning buyukligi va uning falsafiy o'ylarining chuqurligini yoritib bera oldi. Xor qisqartirilgan reprizali oddiy uch qismda yozilgan.

To'rtinchi miniatyura rondo elementli uch qismli shaklda yozilgan. Xor katta bo'lmagan muqaddima bilan boshlanadi. Unda kompozitor turli kuy-ritmik va tembr vositalarida o'zbek xalq cholg'ulari jaranglashini aks ettirishga harakat qiladi. Harakatchan usul bilan navbatma - navbat almashuvchi kuychan ohang birinchi qismga qo'shiqona – raqsona xarakter bag'ishlaydi. Bosh mavzu soprano partiyasiga topshirilgan va o'z hajmiga ko'ra katta emas, kvinta intervali oralig'ida. Unga alt partiyasi doira usuli intonatsiyalarida jo'rlik qiladi. Ayollar xori pastki registrda kuylaydi. O'rta qismda rechitativ (tenor solo) paydo bo'ladi. Bosh mavzu esa boshqa melodik va ritmik variantda namoyon bo'ladi. Soprano uchun ijroda anchayin qiyinchilik tug'iladi, chunki partiya yuqori registrda forte ga kuylaydi. Qolgan xor ovozlari "xo" ga xitob ijro qilib, fon bo'lib xizmat qiladi. Uchinchi qism – dinamik repriza.

Beshinchi miniatyura (Andante kantabile 2/4) aralash xor va solist (tenor) uchun yozilgan. Falsafiy to'liqliligi bilan ajralib turadi. Unda shoirning Yaxshilik va Yovuzlik, zulmat va yorug'lik kurashlarining abadiy muammolari haqida o'ylari aks etadi. Bu mazmun ko'p jihatdan musiqa asosini belgilab beradi. Asosiy mavzu sifatida kompozitor miniatyuraning boshidan ohirigacha o'tuvchi Ibn Sino leytmotivini qo'llaydi. U pastki registrda soprano va altda o'tuvchi kanon bo'lib bayon qilingan. Leytmotiv fonida xalq nomidan chiquvchi solistning deklamatsion partiyasi jaranglaydi. Uni navbatma-navbat erkaklar ovozlari qaytaradi. Xor ikki ovozli shaklda yozilgan.

Oltinchi miniatyura lirik xarakterga ega. Shoir unda qiz go'zalligini kuylab, uni qimmatbaho toshlar la'l va zumradga taqqoslaydi. Melodiyasi ikkinchi va to'rtinchi miniatyuralar intonatsiyalariga qurilgan.

Final - olimning o'z g'oyalariga sodiqligini, erishgan yutuqlari bilan qoniqmasligini yana bir bor tasdiqlaydi. Tematik material yaxlit rivojga ega. Shunga qaramasdan xor partiyalari bayonida sezura belgilash mumkin va u xorni ikki bo'limga ajratadi. Birinchi bo'lim mungli, dramatik xarakterga ega (tempo rubato misterio 2/4). Kuy solistga (tenor) topshirilgan. Bir

<https://conferencea.org>

tovushning ko'p bora qaytarilishi, triolli ritmning muntazam ushlab turilishi, ikkinchi hissaga keluvchi sinkopa kuyda statik xususiyat beradi va uni zikr ohanglariga yaqinlashtiradi. Ikkinchi bo'limga o'tishda xor qat'iy garmonik fakturada yozilgan. Unda birdan fortissimodagi keskin dissonansli akkordlar paydo bo'ladi. Umumiy dramatik fonda bu hitoblar qarshilik timsoli bo'lib qabul qilinadi. Ikkinchi bo'lim–poemaning kulminatsiyasi. Yuqori registr, tessitura, dinamikada unisonli xor o'z tarangligining yuqori cho'qqisiga erishadi.

Shunday qilib, **“Naqshlar”** xor poemasi kompozitsion g'oyasi va dramaturgiyasiga ko'ra original, o'zgacha jaranglanishga ega asardir. Bu Bafoyevning ijodiy yutug'i bo'ldi. **“Naqshlar”** ning intonatsion tabiati Buxoro Shashmaqomi melodik tuzilishini chuqur tushunish va o'zlashtirishdan kelib chiqadi. Butunlay olganda, ushbu tamoyilni kompozitorning ijodiy metodi deb qarash mumkin. Poema kompozitsiyasida, alohida qismlar tuzilishi va munosabatida, solistli xor nomerlari va xususiy xor epizodlarining taqqoslanishida maqomlardagi sho'balari (solist) va ulardan keyin ijro etiluvchi taronalarning (xor) almashuvi kabi rivojlangan an'anaviy kasbiy musiqa ta'sirini kuzatish mumkin. Xor uchun yozilgan nomerlar qo'shiqona - raqsona xarakterga ega (uforlar kabi).

Xor nomerlarida usullardan keng foydalanish ularga alohida kolorit beradi. Kompozitor ularni rangbarang holda: ifodali, kuylashgan usul - fon va aniq, tarang, nog'ora usuliga taqlid sifatida qo'llaydi. Xor yozuvi ham bo'yoqlarga va turli usullarga boyligi bilan ajralib turadi. Gomofon - garmonik tuzilma doirasida kompozitor polifonik usullarga (imitatsiya, stretto, ovozlarning birgalikdagi muvofiqlashgan sadolanishi - kontrapunkti) murojaat qiladi. Kompozitor kantata - oratoriya janrida ham faol ishlab kelmoqda. Ular orasida O.Xalil so'zlariga matn o'quvchi, solistlar, aralash xor va orkestr uchun **“Buxoronoma”** oratoriyasi (1977), Hafiz so'zlariga tenor va orkestr uchun **“Simfonik maqom”** (1978), Bobur so'zlariga solist va erkaklar xori uchun **“G'azal”** (1980) simfoniyasi, Ibn Sinoning 1000 yilligiga bag'ishlab, uning ruboiylariga **“Naqshlar”** xor poemasi (1984), solistlar, aralash xor va orkestr uchun **“Do'stlik”** vokal – xoreografik poemasi (1981) asarlari bor. Kompozitorning vokal-xor uslubining o'ziga xos xislatlari uning matn o'quvchi, solistlar, aralash xor va orkestr uchun J.Kamol so'zlariga **“Toshkent haqida qo'shiq”** (1983) oratoriyasida ayniqsa yorqin namoyon bo'ldi.

90 - yillarda M.Bafoyev yirik shaklli janrlarda o'z ijodini davom ettirgan holda A.Oripov so'zlariga **“Hajnoma”** (1993) oratoriyasi, **“Zafarnoma”** (1995) oratoriyasi, **“Qadimiy marosimlar”** (1995) balet-oratoriyasi, **“Istiqlol madhiyasi”** (1992), **“Turkiston marshi”** (1992) odalari, **“Qurgaymiz buyuk davlat”** (1995) poema asarlarini yaratadi. M.Bafoyevning **“Men seni izlayman”** asari kamer vokal lirikasi janrida yaratilgan eng yaxshi asarlar sirasiga kiradi.

<https://conferencea.org>

Ulardan biri monumental “Alloma” poema-kantatasidir. J.Kamol so‘zlariga solist va xor uchun yozilgan bu asar Al Xorazmiyning 1200 yilligiga bag‘ishlanadi. Turkumning 6 nomeri o‘rta asr allomasining buyuk siymosini namoyon qiladi. Asarning hajmi juda katta. Xor partiyalarida bir paytda turli matndagi va mustaqil kuyli rechitativlarning qo‘llanishi asar uchun xarakterli yozuv uslubi bo‘ldi. Bu kompozitorning katta she‘riy matnni qamrab olishga bo‘lgan intilishini ko‘rsatadi. Poema mavzu materialining yaxlitligi bilan ajralib turadi.

Andante molto

Soprano
Alto
Tenor
Bass

Bafoyevning “Sozlar nag‘masi” asari boshqacha hal qilingan. Noming o‘zi mazmunini belgilab beradi. Xor fakturasi ikki guruhga: S.A.va T.B.ga bo‘linib, har biri turli xalq cholg‘ulari jaranglashini imitatsiyalaydi “bum - baka - bak” bo‘g‘inlarida doira, “dili - dili - din” da turli cholg‘ular ko‘rsatiladi.

Kompozitor qiziqarli xor fakturasini namoyon qila oldi, unda xor tasviriylik funksiyasini bajaradi.

Allegro

S
A
T
B

дин-ди-ри
дин-ди-ри

Xulosa sifatida qayd etish lozimki, Mustafi Bafoyevni xor uchun yozgan asarlari xor san‘ani rivojiga katta hissa qo‘shdi va xor jamoasi ijrosida, konsert sahnalarida doimo ijro etilib, o‘z

tinglovchilarini xushnud qilib, kompozitorni yanada yangi asarlar yaratishga yndab kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gordon Lambconnexions. Choral Techniques. – Rice University, Houston, Texas. <http://cnx.org/content/col11191/1.1/> >273-274.
2. Jabbarov A., O‘zbekiston bastakori va musiqashunoslari. T: 2004.
3. Jabborov A., Solomonova T., O‘zbekiston kompozitorlari va musiqashunoslari. T: 1975.
4. Jumayeva L., O‘zbek xor musiqasi tarixidan. T: 2000.
5. Jumayeva L., Baxritdinova N., Uzbekskaaya xorovaya literatura. T: 1987.
6. Расули –Исраилова С. Стилистические тенденции развития узбекской хоровой музыки 70-90-х годов XX века. – Ташкент: 2003.- С.61.
7. Shamaxmudova B. Xorovoy slovar Uchebnoye posobiye. Izdatelstvo “Muzika”.T:2009.
8. Sharafiyeva N. Xor sinfi. “Musiqa”.T: 2005.